

3. Умарбеков, У. Р. Приключения 1972—1973 (сборник) / Ульмас Умарбеков. - М.: Молодая гвардия, 1973.
4. Намазов Н. Узбекско-русские литературные связи. Дисс...к.ф.н. - Самарканд, 1981.
5. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1379>

Shaxrizoda Komilova – Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasida stajyor-tadqiqotchisi. shahrizodaqahramonova19.09@gmail.com

ORCID ID 0009-0006-3650-2290

Parizoda Kaxramonova – Farg‘ona davlat universiteti 1-kurs magistranti



FARG‘ONA VODIYSI QIZIQCHILARI IJODINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA BADIY XUSUSIYATLARI

<https://zenodo.org/uploads/20029146>

Annotatsiya. Mazkur maqolada qiziqchilar ijodida kuzatilayotgan zamonaviy tendensiyalar, ularning shakllanish omillari hamda badiiy-estetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, an’anaviy qiziqchilik san’atining bugungi ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta’sirida transformatsiyalanish holatlari, sahna talqini, mavzu doirasining kengayishi va ijro uslubidagi yangilanishlar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, bo‘lajak qiziqchilarning amalga oshirishi mumkin bo‘lgan ijodiy faoliyati yo‘nalishlari tizimlashtirilib, ularning repertuar shakllantirish tamoyillari, obraz yaratish mahorati hamda tomoshabin bilan kommunikativ munosabat o‘rnatish mexanizmlari tasniflanadi. Maqolada qiziqchilik san’atining istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari yuzasidan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ham ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: san’at, teatr, qiziqchi, tendensiya, janr, texnika, so‘z, tana, tovush.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТВОРЧЕСТВА НАРОДНЫХ ЮМОРИСТОВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация. В данной статье анализируются современные тенденции в творчестве народных комических исполнителей, факторы их формирования, а также художественно-эстетические особенности. В частности, на научной основе освещаются процессы трансформации традиционного искусства народных комических исполнителей под воздействием современных социокультурных изменений, сценическая интерпретация, расширение тематического диапазона и обновление исполнительских приёмов. Кроме того, систематизируются возможные направления творческой деятельности будущих народных комических исполнителей, классифицируются принципы формирования репертуара, особенности создания художественного образа и механизмы установления коммуникативного

взаимодействия со зрительской аудиторией. В статье также формулируются научные выводы и практические рекомендации относительно перспектив дальнейшего развития данного вида искусства.

Ключевое слово: искусство, театр, любитель, направление, жанр, техника, слово, тело, звук.

CONTEMPORARY TRENDS AND ARTISTIC FEATURES OF THE CREATIVE WORK OF FOLK COMIC PERFORMERS OF THE FERGANA VALLEY

Abstract. This article analyzes contemporary trends in the creative practices of folk comic performers, the factors influencing their formation, and their artistic and aesthetic features. In particular, it examines the transformation of traditional comic performance under the influence of current socio-cultural processes, including changes in stage interpretation, the expansion of thematic scope, and innovations in performance techniques. Furthermore, the study systematizes the prospective creative directions of future folk comic performers, classifies the principles of repertoire formation, explores the techniques of character construction, and analyzes the mechanisms of establishing communicative interaction with audiences. The article also presents scholarly conclusions and practical recommendations regarding the future development of this art form.

Keywords: art, theater, comedian, trend, genre, technique, word, body, sound.

Kirish.

Farg'ona vodiysida faoliyat olib borayotgan qiziqchilar ijodida qator yangi va zamonaviy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ushbu tendensiyalar turli shakl va yo'nalishlarda namoyon bo'lib, ularning yuzaga kelishi jamiyatda shakllanayotgan ijtimoiy-madaniy muhit va shart-sharoitlarning dinamik o'zgarishi bilan bevosita bog'liqdir. Mavzular rang-barangligi tomoshabinlar auditoriyasining ehtiyoj va did jihatidan xilma-xilligi bilan izohlanadi. Kulgi san'atida yangi qirralarning vujudga kelishi, avvalo, insonlarning estetik didi, noziklikni anglash va badiiy zavq olish qobiliyatining cheksizligi bilan belgilanadi.

Har bir tendensiyaning shakllanishida kulgi muxlislarining muayyan yo'nalishlarga bo'lgan barqaror qiziqishi va moyilligi muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, qiziqchilar ham o'zlarining individual tabiati, sahnadagi obraz yaratish uslubi hamda kulgi namunalarining badiiy talqinida sezilarli darajada farqlanadi. San'atkorlar chiqish jarayonida ijtimoiy yoki maishiy hayotga oid muhim va dolzarb masalalarni kulgi, yumor hamda hazil unsurlarini qo'llagan holda, ayrim hollarda mubolag'a va kinoya vositasida, tomoshabinga yetkazishda turli badiiy hamda texnik ifoda vositalaridan samarali foydalanadilar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Qiziqchilar tomoshabinlarda qahqaha va kulgi uyg'otish orqali ularning kundalik hayotdagi charchoq va ruhiy zo'riqishlardan xalos bo'lishiga, ma'lum darajada erkinlik va psixologik xotirjamlik holatini his etishiga xizmat qiladilar. Farg'ona vodiysi qiziqchilari ijodida bir qator zamonaviy tendensiyalar mavjudligi kuzatiladi. Mazkur tendensiyalar turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lib, kulgi san'atini ilmiy jihatdan o'rganish va

umumlashtirish jarayonida muhim nazariy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Quyida ularning ayrimlari qisqacha tahlil qilinadi.

Natija va muhokama.

Ayrim san'atkorlar faoliyatini faqat qiziqchilik yo'nalishi bilan cheklasa, boshqalari qiziqchilik san'ati bilan bir qatorda askiya janrida ham o'z mahoratini samarali namoyon etib kelmoqda. Arab tilidan kirib kelgan "zakiy" atamasi "o'tkir zehqli", "hozirjavob" ma'nolarini anglatib, uning asl mohiyatini chuqur anglash hamda ichki qonuniyatlarini egallash ijrochidan yuqori darajadagi intellektual va badiiy salohiyatni talab etadi. Xalqimizning turli bayram va tantanalarida, ommaviy sayil va yig'inlarda, shuningdek, mahalliy to'y marosimlarida muayyan mavzu asosida sahna yoki maydonda tashkil etiladigan askiya musobaqalari ikki yoki undan ortiq san'atkorlar hamda guruhlar tomonidan ijro etilib, ijrochilardan keng bilim doirasi, nutq madaniyati va sahna tajribasini talab qiladi.

Askiya jarayonida san'atkorlar ba'zan qarama-qarshi tomon sifatida, ba'zan esa ustoz-shogird munosabatida o'zaro badiiy so'z bellashuviga kirishadilar. So'z o'yinida raqibiga munosib va o'rinli javob topishda mavzu yoki janr doirasidan chetga chiqish, shuningdek, so'z tanlashda pala-partishlikka yo'l qo'yish mag'lubiyat belgisi sifatida baholanadi. Tomoshabinlar o'z kulgisi, hissiy munosabati va qarsaklari orqali tomonlarning chiqishlari va javoblariga baho berib boradilar; mazmunan boy, serzavq va badiiy jihatdan mukammal askiyalardan zavq olsalar, sayoz va qo'pol chiqishlarga nisbatan salbiy munosabat bildiradilar. Askiyaning mazmunli, ta'sirchan va kulgili tarzda ijro etilishi ijrochilardan hozirjavoblik, badihago'ylik, mavzuga daxldor chuqur va keng ma'noli leksik birliklarni topa bilish, shuningdek, mimika, jest, tana harakatlari, tovush va imo-ishoralardan o'rinli va samarali foydalanish mahoratini talab etadi.

Farg'ona vodiysida faoliyat yuritgan M. Darveshov, J. Po'latov, A. Akbarov, G'. Axmedov, V. Shamsiyev hamda Avaz Oxun kabi qiziqchilar nafaqat qiziqchilik, balki askiya san'atida ham bellasha oladigan yuksak badiiy mahorat sohiblari sifatida e'tirof etiladi. Xususan, kulgi ustasi M. Darveshov askiyachilar musobaqalarida o'zining o'tkir hozirjavobligi va badihago'yiligi bilan ajralib turgan. Uning "Ota-bola payrovi", "Gul payrovi", "Sayil payrovi" kabi ijrolari xalq orasida keng ommalashgan.

Ustoz san'atkorning shogirdi, Oltiariq tumanida istiqomat qiluvchi qiziqchi A. Akbarov askiyaning "Payrov", "O'xshatdim", "Gulmisiz, rayhonmisiz?" singari turlarida ijro mahoratini yuqori darajaga yetkazgan. Ushbu ijrochilar repertuaridagi "Ena tovuq payrovi", "Qo'shiq payrovi", "Dor payrovi", "Ayollar zamoni bo'lsa-ya..." kabi askiya namunalarining S. Anvaryov tomonidan yozib olinib, nashr etilishi milliy kulgi san'ati tarixida muhim ilmiy-madaniy hodisa sifatida baholanadi [2, 118]. Shuningdek, "Bodring va uzum payrovi", "Kino payrovi" kabi askiyalarning yangicha talqindagi variantlari ham yaratilganligi manbalarda qayd etiladi [3, 170].

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Jo'raxon Po'latov qiziqchilik faoliyati bilan bir qatorda turli madaniy kechalar, to'y va ziyofatlar hamda davlat miqyosidagi tadbirlarda tashkil etilgan askiyachilar guruhlarida faol ishtirok etib, payrovlarda ularning munosib raqibi sifatida maydonga chiqqan. U M. Darveshov, Y. Nosirov, G'. Abdurahmonov, M.

Toshpo'latova va M. Sharipovlar bilan hamkorlikda askiyachi va qiziqchilar jamoasini shakllantirib, ma'lum muddat unga rahbarlik qilgan.

Qo'qonlik askiyachi va kulgi ustasi turli yillarda N. Toshmatov bilan birgalikda "Qurilish materiallari payrovi"ni yuksak badiiy saviyada ijro etib kelgan [1, 113]. Ushbu askiyada do'konga kirib-chiqayotgan turli xarakterdagi xaridorlar, noyob qurilish mahsulotlari hamda sotuvchining uddaburonligi va hozirjavoblighi obrazli va kulgili tarzda tasvirlangan. Umuman olganda, qiziqchilik va askiya san'atida birdek yuksak natijaga erishish san'atkordan keng bilim doirasi, so'zamollik, badihago'ylik va tezkor fikrlash qobiliyatini talab etadi.

XX asrda fan va texnika taraqqiyoti natijasida badiiy madaniyatning ko'rinadigan va harakatlanuvchi shakllarini tasvirga olish hamda ommaviy tarzda uzatish imkoniyati vujudga keldi. Xususan, radioelektron vositalar yordamida tasvirlarni muayyan masofalarga yetkazish bilan bog'liq texnologik yangiliklar televideniyeining shakllanishiga zamin yaratdi. Zamondoshlarning o'zlari yashab turgan hududdan uzoqda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni bevosita ko'rishga bo'lgan ehtiyoji teleko'rsatuvlarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga turtki bo'ldi. Natijada qiziqchilar ijodini teleekran orqali tomosha qilish imkoniyati yuzaga kelib, Farg'ona vodiysi qiziqchilari tomonidan sahnaga olib chiqilgan mavzular tanlab olinib, telekameralar orqali tasvirga muhrlana boshlandi.

So'nggi yillarda bunday ko'rsatuvlar son jihatidan ko'payib, mazmun va qamrov doirasi kengaydi. Mazkur davrda ilgari mavjud bo'lgan televizion kulgi badiiy saviya nuqtayi nazaridan yangi bosqichga ko'tarildi. Vaqt o'tishi bilan telekulgiga bag'ishlangan maxsus dasturlar efirga uzatila boshladi. Ushbu ko'rsatuvlar shakl va mazmun jihatidan takomillashib, yangi ijodiy izlanishlar va tajribalar bilan boyitildi. Kulgiga bag'ishlangan teleloyihalar o'zining xalqchilligi va ommabopligi bilan tomoshabinlar e'tiborini tortdi.

Dastlab Farg'ona vodiysi qiziqchilari – Yusufjon qiziq Shakarjonov, M. Darveshov, R. Hamroqulovlarning turli mavzulardagi ijod namunalari televizion kulgida o'ziga xos yangicha ruh va nafas paydo bo'lganidan dalolat berdi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Farg'ona vodiysi qiziqchilari tomonidan yaratilgan kulgi namunalari aksariyati asosan mayda janrlar doirasida shakllangan [4, 74]. Bu fikr ma'lum darajada asosli bo'lib, chunki yangi davrda yaratilgan qiziqchilik asarlari mahalliy an'anaga tayangan bo'lsa-da, avvalgi davrlarga xos janriy rang-baranglik, badiiy boylik va mavzu xilma-xilligi to'liq saqlanib qolmagan edi.

Ana shunday sharoitda M. Darveshov tomonidan joriy etilgan sahnaviy estrada yo'nalishi televideniye kulgi dasturlarining badiiy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Ko'rsatuvlar yanada jonlanib, yangicha estetik kayfiyat va ifoda vositalari bilan boyidi. Qiziqchining "Afandining eshagi", "Pul", "Avtobus" kabi qator ijod namunalari teleekranlar orqali keng ommaga namoyish etildi. Keyinchalik mazkur an'ana uning shogirdlari tomonidan izchil davom ettirildi. Jumladan, G'. Axmedov, A. Akbarov, A. Siddiqov, I. Hamroqulovlarning ijodiy chiqishlari turli telekanallar orqali muntazam namoyish etib kelinmoqda.

Shu bilan birga, telekulgi sohasida muayyan muammolar ham mavjud. Xususan, qiziqchilar tomonidan ijro etilayotgan komedik asarlarning dramaturgik jihatdan tarqoqligi,

voqealar rivojining mantiqiy izchillikka ega emasligi hamda mazmunan sayozligi koʻzga tashlanadi. Bunday holat koʻpincha ssenariyning ijrochilar yoki rejissyorlar tomonidan yetarli darajada puxta ishlab chiqilmasligi, ayrim hollarda esa ssenariyning umuman mavjud emasligi bilan izohlanadi.

Fargʻona vodiysi kulgi sanʼatini ilmiy jihatdan oʻrganish jarayonida dastlabki hujjatli filmlar ham suratga olingan. Xususan, kinorejissyor M. Qayumov tomonidan yaratilgan “Askiya” nomli qisqa metrajli hujjatli film mazkur yoʻnalishdagi ilk tajribalar sirasiga kiradi. Ushbu kino asarida Margʻilon shahridagi bogʻ hududida joylashgan choyxona supasida soʻz ustalarining oʻzaro badiiy bellashuvi tasvirlanib, u hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan noyob va yagona hujjatli manba sifatida tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa.

Bugungi kunda turli telekanallarda namoyish etilayotgan kulgi koʻrsatuvlari orasida “Qalpoq” dasturi alohida ajralib turadi. Biroq taxminan 20 daqiqaga moʻljallangan ushbu koʻrsatuvda badiiy yaxlitlikning yetishmasligi, aniq va tugal syujetning mavjud emasligi hamda efir jarayonida uchrayotgan koʻplab texnik va ijodiy kamchiliklar telekulgi sohasida hal etilishi lozim boʻlgan masalalar hanuz koʻp ekanligini koʻrsatadi. Mazkur holat ijodkorlarning ekran oldidagi masʼuliyatni yetarli darajada his etmasligi, shuningdek, ularning professional malaka, nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarining yetishmasligi bilan izohlanadi. Shu boisdan, mavjud kamchiliklarni tizimli ravishda bartaraf etish, telekulgini mazmunan boy, badiiy jihatdan mukammal hamda tomoshabinlar ehtiyojiga mos haqiqiy xalqchil tomosha darajasiga koʻtarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mannopov S., Sherayev M. Oʻzbek xalqining askiya va qiziqchilik sanʼati. – Fargʻona, 2020.
2. Said Anvar. Abdulla qiziq nima deydi? – Toshkent: Sharq, 2020.
3. Sulstonov N., Sulstonov M. Askiya: kulgi – chehraning guli. – Fargʻona, 2018.
4. Qodirov M. Oʻzbek teatri tarixi. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2003.